



## KOXLEAR IMPLANT VA UNING BOLA HAYOTIDAGI TUTGAN O'RNINI VA AHAMIYATI

*Farg'ona davlat universiteti  
o'qituvchisi Isodullayeva  
Farg'ona davlat universiteti  
talabasi S. Ergashova*

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233531>

**Annostatsiya:** Ushbu maqola eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar va koхlear implant haqida qisqacha ma'lumot va uning bola hayotidagi o'rni, ahamiyati, afzalliklari va implantatsiya jarayonidan keyin bunday bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish, eshituv idrokini, tovush talaffuzini, lug'at boyligini oshirish haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена краткая информация о детях с нарушениями слуха и кохлеарном импланте, его роли, значении и преимуществах в жизни ребенка. Также приводятся сведения о коррекционно-педагогической работе, проводимой с такими детьми после процесса имплантации, направленной на улучшение слухового восприятия, произношения звуков и расширение словарного запаса.

**Annotation:** This article provides a brief overview of children with hearing impairments and cochlear implants, discussing their role, significance, and advantages in a child's life. It also touches upon the corrective and pedagogical work conducted with such children after the implantation process, including brief information on methods to improve auditory perception, sound pronunciation, and vocabulary enrichment.

**Kalit so'zlar:** koхlear implant, eshituv idroki, reabilitatsiya, nutq protsessori, mikrofon, audiolog, chig'anoq, ichki quloq

**Ключевые слова:** Кохлеарный имплант, слуховое восприятие, реабилитация, речевой процессор, микрофон, аудиолог, улитка, внутреннее ухо.

**Key words:** cochlear implant, auditory perception, rehabilitation, speech processor, microphone, audiologist, cochlea, inner ear

Eshitish-inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, dunyoni anglash, muloqot qilish, jamiyatda faol ishtirok etish imkonini beradi. Ammo tug'ma va orttirilgan eshitish qobiliyatining buzulishi bunga to'sqinlik qiladi. Hozirgi kunda tibbiyotda bu muammoni hal qilishning samarali yo'li koхlear implant texnologiyasidir. Koхlear implant-bu jarrohlik yo'li bilan implantatsiya qilingan neyroprotez bo'lib, o'rta va chuqur sensorli eshitish qobiliyatini yo'qotgan bolalarga tovushni idrok etishga yordam beradi. Bu qurilma koхlear nervini elektr bilan ta'minlaydi. 2 qismdan iborat bo'lib, tashqi hamda ichki. Quloq orasida joylashgan tashqi qismi mikrofon va nutq protsessorini o'z ichiga oladi. Mikrofon tovush to'lqinlarini qabul qilganda, nutq protsessori ovozni tahlil qiladi, shuningdek, uni raqamli signallarga aylantiradi. Ichki qismi ya'ni haqiqiy implant, signallarni qabul qilish uchun spiral, elektronika, chig'anoq ichidagi elektrodlardan iborat.

### **Koxlear implantning ahamiyati:**

- Nutq va muloqotni rivojlantiradi;
- Ijtimoiy moslashuv;
- O'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi;
- Eshituv idrokini shakllantiradi;

Koxlear implantning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Eshitishni qayta tiklash;
- Har qanday tovush va shovqinni eshitish;
- Implantli bolalar atrofdagilar gaplarini aniq eshitish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- Agar implant yoshligidayoq ya'ni 3 yoshgacha o'rnatilsa, nutq rivojlanishi normal bolalar kabi davom ettiradi;



- Ta'lim jarayonida ham faol qatnashish imkonini beradi ;

Reabilitatsiya - (lotincha, Rehabilitation-tiklash) ma'nonini anglatadi. Organizmning buzilgan funksiyasini tiklash, nuqsonli shaxslarni davolashga qaratilgan tibbiy, pedagogik, ijtimoiy ish majmuidir. Koxlear implantatsiyadan keyin reabilitatsiya juda muhim sanaladi. Sabab shundaki, bemor bola yangi eshitish tizimiga moslashishini, ovozlarni tog'ri idrok etishini o'rganishi kerak. Implantatsiyadan keyin bemor tahminan 2-4 hafta operatsiya jarohatini tuzalishini kutadi. Bu vaqtda implant yoqilmaydi. Shifokor tomonidan implant operatsiyadan 3-4 hafta o'tgach faollashadi. Maxsus audiolog dasturlash orqali implantni moslashtiradi, ovoz signallarini mos ravishda sozlab beradi. Implant ishlashni boshlagandan keyin sudopedagog va audiolog bilan muntazam mashg'ulot olib boriladi. Implantli bolalar uchun psixologik moslashish muhim bo'lib, yangi eshitish tajribasi uning hissiy holatiga juda katta ta'sir ko'rsatadi va mutaxassislarni yordami bu jarayonni yengillashtiradi.

Koxlear implant o'rnatilgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish maxsus dastur va metodikalarni talab etadi:

1-navbatda, eshitish treninglari, turli tovushlarni ajratish va farqlash bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi;

2-navbatda, fonematik eshitishni rivojlantiriladi;

3-navbatda, nutq terapiyasi: Logoped yordamida tovush, so'z, gaplarni tog'ri talaffuz qilishni o'rgatish.

Koxlear implant bilan yashayotgan bolalar uchun tog'ri va tizimli pedagogik yondashuv ularning nutq va eshitish qobiliyatini samarali rivojlantirishga yordam beradi. Bunday bolalarning tovush talaffuzi va lug'at boyligini oshirishning bir qator usullari mavjud:

**Artikulyatsiya mashqlari;**

**Og'iz va til harakatlari:** Tilni burish, lablarni cho'zish va siqish mashqlari.

Oyna oldida mashq qilish: Bola tovush chiqarganda lab va til harakatlarini kuzatib, to'g'ri talaffuzni shakllantirish.

**Tovushlarni mustahkamlash;**

**Qisqa so'zlardan boshlash:** Oddiy so'zlarni aniq va to'g'ri talaffuz qilishga e'tibor qaratish.

**Lug'at boyligini rivojlantirish;**

**Kundalik suhbatlar:**

**Doimiy muloqot:** Bola bilan har kuni sodda va tushunarli gaplar orqali muloqot qilish.

**Tushuntirish usuli:** Yangi so'zlarni ishlatganda ularning ma'nosini tasvirlash yoki real buyumlar bilan bog'lash.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlarga, ota-onalar farzandlari yoshligida, hattoki, tug'ilishdan avval, homiladorlik davridayoq befarq bo'lmasligi kerak. Bolaning rivojlanish bosqichida gentomitsin, kanomitsin, merkatsin va boshqa antibiotiklarni qo'llashda ehtiyot bo'lishlari darkor. Yangilish qilingan bir dona harakat yoki hodisa ham bolaning asosiy eshitish sezgisiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Koxlear implantli bolalar bilan kompleks holda mashg'ulotlar olib borish joiz. Bundan tashqari, yuqori malakali surdapedagog kadrlarni ko'paytirish hamda ularga chet el malakalarini o'rgatish muhim. O'quv jarayonida inklyuziv ta'limni rivojlantirish kerak va bu dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Haqberdiyev Jamoliddin»KOXLEAR IMPLANTATSIYADAN KEYIN BOLA QANDAY REABILITATSIYAGA MUHTOJ?»

2. M .Ayupova „Logopediya”

3. Samaradorlik ^ Manbalar 1. ↑ „NCD – Cochlear Implantation (50.3)”.

[www.cms.gov](http://www.cms.gov).

4. Koxlear i... wikipedia.org 12. “Cochlear implants and electronic hearing”.

5. Haqberdiyev J., „Koxlear implantatsiyadan keyin bolani reabilitatsiya qilish masalalari”v